

## PEDAGOGIK NAZARIYANING YANGICHA ASOSLARI YOXUD OQ TONGLAR KUYCHISI – ABDULLA AVLONIY BUGUNGI ZAMON NIGOHIDA

Abdusalomova Muslima G'ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pe-  
dagogika Universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

## NEW BASIS OF PEDAGOGICAL THEORY OR WHITE MORNING - ABDULLA AVLONI TODAY'S VIEW

Abdusalomova Muslima Gayratjon qizi

Tashkent State University named after Nizami 3rd year student of the Faculty of History of  
the University of Dagestan

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk ma'rifatparvar, jadidchi olim Abdulla Avloniyning ijod yo'li, uning yoshlar ta'lim-tarbiyasida, ularni ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy jihatdan yuksaltirishda qilgan sa'y-harakatlari, qolaversa pedagogika sohasiga qo'shgan bebaho hissasi, shuningdek, Avloniy qarashlari va asarlarining bugungi kun uchun ahamiyati nechog'liq ekani xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, teatr, pedagogiya, tarbiya, alifbe, matbuot, dramaturgiya, muallim, taraqqiyot

Badiiy adabiyotni, uning mazmun-mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy funksiyasi, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o'rganish uchun, avvalo, adabiyotshunoslik hamda ilmiy asarlar bizga yordamga keladi. O'zbek milliy adabiyoti bosib o'tgan uzoq tarixiy yo'l, zamon, siyosat va adabiy jarayon munosabatlarining o'ziga xosliklari, u yoxud bu ijodkorning ushbu jarayonga ko'rsatgan ta'siri yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, mustaqillik yillarida atoqli ma'rifatparvar adib va dramaturg - Abdulla Avloniy hayoti va ijodi hamda yaratgan asarlarini o'rganib, mulohaza qilish yetakchi vazifalardan biriga aylandi.

Yangi davr o'zbek madaniyatining asoschilaridan biri bo'lgan, adabiyot, milliy teatr, dramaturgiya, milliy pedagogika va matbuotga tamal toshini qo'ygan xalqimizning asl farzandi Abdulla Avloniy 20-yillarda nafaqat o'zbek xalqi maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etgan, balki qo'shni afg'on xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muayyan rol o'ynagan, desak also mubolag'a bo'lmaydi. Iste'dodli shoir va ma'rifatparvar adibning o'z tarjimai holida yozishicha: "12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim, 13 yoshimdan boshlaab yoz kunlari maardikorlikda ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim 14 yoshimdan boshlab o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim".

Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug' kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo'ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko'z-ko'z qilinaveradi. Ana shunday maqtovg'a loyiq inson, o'zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri bo'lmish Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nuridan bahramand qilishni o'zining birdan bir burchi deb bildi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, Abdulla Avloniy birinchi o'zbek teatri

tashkilotchilaridan edi. Teatr uchun bir necha drama yaratdi, ularni rejissyor sifatida sahnalashtirdi. Uning bu faoliyati o'z maktabida xor, ifodali o'qish, musiqa va ashula darslarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Abdulla Avloniyning badiiy asarlarni ifodali o'qish sohasidagi bunday faoliyati tezda Toshkentning usuli qadim va usuli jadid maktablariga ham kirib bordi.

Mana shunday sharoitda yangi ochilayotgan maktablar uchun zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchilarni tarbiyalab yetishtirish, maktablar uchun milliy ruh ufurib turgan darslik va majmualar yaratish uchun dasturulamal bo'ladigan qo'llanma kerak edi. Shuning uchun ham Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvarqori Abdurashidxonov hamda ilg'or pedagoglarning taklifi bilan yaratilgan edi.

Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o'rinda o'quvchilarni ko'zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o'quvchilardan ko'ra ko'proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so'zlari "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining maqsadini to'la ifodalaydi: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir. Ta'lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur".

Barkamol insonni voyaga yetkazish, ularni yaxshilikka chorlash, yomonlikdan qaytarish tarbiya orqali amalga oshiriladi. Avloniyning pedagogika haqidagi ta'rifi ham hozirgi zamon ta'rifiga ancha mos keladi: "Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur".

Avloniy yaratgan asarlar hali-hanuz o'z ahamiyati saqlagan holda, hozirgi zamon darsliklari uchun dasturulamal vazifasini o'tamoqda. U asarlar yuksak tarixiy-pedagogik mazmunga ega bo'lgan ta'limiy, qomusiy manbalardir. Shu boisdan ham bu qo'llanmalarga bo'lgan qiziqish hamda talab so'nggi besh yillikda yanada kuchaydi. Darhaqiqat, Abdulla Avloniy asarlarining tub mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularda o'z aksini topgan mehnatsevarlik, vatanparvarlik, adolat, diyonat, insonparvarlik tushunchalariga oid fikrlarning bugungi zamon uchun ham nechog'lik katta ahamiyat kasb etishini ilg'ash mumkin. Abdulla Avloniy asarlarida yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning pedagogik talqini bayon etilgan S.Nishonova, O.Musurmonova, U.Mahkamov kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e'tiborga loyiqdir. Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir: "Biz birinchi kitobini, shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobini xrestomatiya deb atasak joiz bo'lar, desak xato bo'lmas".

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siyosi, faoliyati biz uchun qadrlidir. Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog olimdir.

Bugungi davr nigohida Abdulla Avloniy adabiyot, dramaturgiya, matbuot, o'zbek milliy pedagogikasiga tamal toshini qo'ygan serqirra ijodkor sifatida gavdalanadi. Uning maorif va madaniyat sohasida ko'rsatgan tashabbuskorligi, nafaqat o'z davrining, balki

bugungi kunning ham asosiy qahramonlaridan biriga aylantirgan.

Aytib o'tish joizki, Abdulla Avloniy nomidagi malaka oshirish institutining tashkil etilishi ham bugungi kunda Xalq Ta'limi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishi ham serqirra ijodkor, adibimizning bugungi zamonaviy hayotimizdagi ta'siri va ahamiyati deyishimiz mumkin. Shu jumladan, Toshkent Davlat Pedagogika universitetida Abdulla Avloniy nomidagi maxsus stipendiya va ko'krak nishonining ta'sis etilishi ham yoshlar o'rtasida ilmiy salohiyatini oshirish va ijodkorlik ruhidagi talabalarga ko'plab imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi Abdulla Avloniy merosi nafaqat biz balki bizdan 118eying avlodlarga ham ibrat va ma'naviy maktab vazifasini bajaradi. Zero, butun umrini, butun borlig'ini millat bolasining savodini chiqarish, onggini rivojlantirishga sarflagan bunday ma'rifatparvar insonlar tomonidan dunyoga kelgan nodir asarlar boshqa takrorlanmasligiga ishonchimiz komil.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'grisida. // Prezident Farmoni. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1.
2. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: "Fan", 2006. -B.261.
3. Turdiyev N. Uzliksiz ta'lim uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi
4. avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asoslari. -Toshkent: "O'zbekiston milliy
5. ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. - B.160
6. Safarov O. O'zbek bolalar o'yin folklori tabiati. - Toshkent: Fan, 2008. – B.118.
7. Til ta'limi bosqichlarida uzviylikni ta'minlashning ilmiy-amaliy muammolari. "O'zbek tili" doimiy anjumani o'ninchi yig'ini materiallari. - Toshkent, 2009. - B. 269